

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TRANSPORT VAZIRLIGI HUZURIDAGI TEMIR
YO'LLARDA YUK VA YO'LOVCHILAR TASHISH XAVFSIZLIGINI NAZORAT QILISH
INSPEKSIYASI**

**“O'ztemiryo'lnazorat” inspeksiyasi Buxoro filiali lokomotiv xo'jaligi bo'yicha bosh inspektori
A.A.Kosimov tomonidan shoxobcha temir yo'l va harakat tarkibiga ega bo'lgan tashkilot va
tadbirkorlar uchun qo'llanma.**

Qo'llanma

Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 28 sentyabrdagi 537-son qaroriga **“Foydalanishga topshiriladigan harakatdagi temir yo'l tarkibi xavfsizligi to'g'risida”** umumiy texnik reglament qo'llanma sifatda tavsiya etiladi.

1. Foydalanishga topshiriladigan harakatdagi temir yo'l tarkibi xavfsizligi to'g'risidagi umumiy texnik reglament (keyingi o'rinlarda — Texnik reglament) aholi hayoti va salomatligini, atrof muhitni, yuridik va jismoniy shaxslar, davlatning mol-mulkini himoya qilish maqsadida foydalanishga topshiriladigan harakatdagi temir yo'l tarkibi va uning tarkibiy qismlariga qo'yiladigan xavfsizlik talablarini belgilaydi.

2. Harakatlanish tezligi 200 km/soatgacha bo'lgan, yo'l izining kengligi 1520 mm bo'lgan umumiy foydalanishdagi temir yo'llar va idoralarga qarashli temir yo'l shoxobcha yo'llarida foydalanish uchun topshiriladigan chetdan olib kelinadigan, yangi ishlab chiqariladigan, modernizasiya qilinadigan harakatdagi temir yo'l tarkibi va uning tarkibiy qismlari Texnik reglamentni tartibga solish obyektlari hisoblanadi.

3. Mazkur Texnik reglament talablari harakatdagi temir yo'l tarkibi va uning tarkibiy qismlarini loyihalashtirish va ishlab chiqarishda, shuningdek, temir yo'l mahsuloti muvofiqligini baholashda majburiydir hamda umumiy foydalanishdagi temir yo'llarda va idoralarga qarashli temir yo'l shoxobcha yo'llarida qo'llaniladi.

Mazkur Texnik reglament talablari ushbu reglamentga **ilovadagi** ro'yxatda keltirilgan harakatdagi temir yo'l tarkibi hamda uning tarkibiy qismlarining turi va toifalariga tatbiq etiladi.

4. Mazkur Texnik reglament talablari harakatlanish tezligi 200 km/soatdan yuqori bo'lgan harakatdagi temir yo'l tarkibi, shuningdek, ko'rgazma nusxalari sifatida ishlab chiqarilgan temir yo'l mahsulotlariga nisbatan tatbiq etilmaydi

6. Harakatdagi temir yo'l tarkibi va uning tarkibiy qismlarini loyihalashtirishda hisob-kitob, tajriba va ekspertlash yo'li bilan, shu jumladan, o'xshash temir yo'l mahsulotidan foydalanish bo'yicha ma'lumotlar asosida xavflilik darajasi baholanishi lozim. Xavflilik darajasini baholash usullari muvofiqlikni baholash (tasdiqlash) maqsadlari uchun qo'llaniladigan texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarda belgilanishi mumkin.

7. Harakatdagi temir yo'l tarkibi va uning tarkibiy qismlarining xavfsizligi:

a) harakatdagi temir yo'l tarkibi va uning tarkibiy qismlarini loyihalashtirishda ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini amalga oshirish;

b) sinovdan o'tkazilgan texnik yechimlarni qo'llash;

v) harakatdagi temir yo'l tarkibi va uning tarkibiy qismlarining belgilangan xizmat muddatlari va (yoki) resurslarini belgilash, shuningdek, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashni zarur davriylik bilan o'tkazish;

g) sinovdan o'tkazilgan uslubiyotlarga asoslangan hisob-kitoblar kompleksini o'tkazish;

d) foydalanish parametrlari va shartlaridan kelib chiqib harakatdagi temir yo'l tarkibi va uning tarkibiy qismlarini loyihalashtirish va ishlab chiqarishda qo'llaniladigan materiallar va moddalarni tanlash;

ye) harakatdagi temir yo'l tarkibi va uning tarkibiy qismlarining chegaraviy holatlari mezonlarini belgilash;

j) harakatdagi temir yo'l tarkibi va uning tarkibiy qismlarini utilizasiya qilish shartlari va usullarini aniqlash;

z) harakatdagi temir yo'l tarkibi va uning tarkibiy qismlari muvofiqligini baholash orqali ta'minlanadi.

8. Harakatdagi temir yo'l tarkibi va uning tarkibiy qismlari mustahkamligi, barqarorligi va texnik holatiga ko'ra poyezdlarning yo'l qo'yilgan ko'rsatkichlar chegarasidagi eng yuqori tezliklar bilan xavfsiz harakatlanishi ta'minlashi lozim.

9. Harakatdagi temir yo'l tarkibi va uning tarkibiy qismlari:

- a) harakatdagi temir yo'l tarkibi gabaritlariga rioya qilinishini;
- b) tashqi iqlim va mexanik ta'sirlarni hisobga olib foydalanish shartlari bajarilishini;
- v) temir yo'l infratuzilmasi va ushbu infratuzilmada foydalanilayotgan boshqa harakatdagi temir yo'l tarkibi bilan texnik moslashuvchanlikni;
- g) g'ildiraklarni izdan chiqib ketishiga bardoshlilikni;
- d) temir yo'llarning og'ma uchastkalarida ag'darilib ketishga bardoshlilikni;
- ye) to'xtab turish joyidan o'z-o'zidan ketib qolishining oldi olinishini;
- j) tortish va tormozlash rejimlarida dinamik kuchlanishni uzatish uchun poyezdlardagi ulanishni;
- z) yo'l qo'yilgan tormozlash yo'lini;
- i) pagonli kuchlanishning, temir yo'lga ta'sir bo'yicha yo'l qo'yilgan chegaraviy kuchlarning, hisoblangan o'q yuklamalarining oshib ketmasligini;
- k) harakatdagi temir yo'l tarkibi tarkibiy qismlari temir yo'lga tushishining oldi olinishini;
- l) tortish kuchi, tormozlash va tezlanish qiymatlarining yo'l qo'yilgan chegaraviy ko'rsatkichlariga muvofiqlikni;
- m) sanitar-epidemiologik va ekologik xavfsizlikni;
- n) uskuna va jihozlarning xavfsiz ishlashini ta'minlash qismi bo'yicha elektr jihozlarning elektromagnit moslashuvchanligini;
- o) elektr jihozlarining temir yo'l transporti infratuzilmasining temir yo'l avtomatika va telemexanika, temir yo'l elektr aloqa qurilmalari bilan elektromagnit moslashuvchanlikni;
- p) yong'in xavfsizligi talablarining bajarilishini;
- r) yuklashning yo'l qo'yilgan rejimlarida va ta'sirlarda mustahkamlikni;
- s) bo'ylama va ko'ndalang hisoblangan dinamik yuklamalarni qo'llashda plastik deformatsiyalarning bo'lmasligini;
- t) yuklashning kam siklli va ko'p siklli rejimlarida charchashga qarshilikni;
- u) foydalanish rejimlarining barcha diapazonlarida (elektr ta'minotining nominal va chegaraviy rejimlarida) elektr jihozlari ishining xavfsizligi va ishonchligini;
- f) mexanizasiya vositalarini qo'llab yuk ortish va yuk tushirishda yuk, pochta va bagaj vagonlari konstruksiyasining xavfsizligini;
- x) tepaliklardan tarqatishda vagonlarning ulanishini;
- s) harakatdagi temir yo'l tarkibi tarkibiy qismlarining bir-biri bilan va konstruktorlik hujjatlarida nazarda tutilmagan temir yo'l transporti infratuzilmasi elementlari bilan urinish nuqtalarining mavjud emasligini;
- ch) temir yo'llarning og'ma uchastkalarida harakatdagi temir yo'l tarkibining ulanishini, idoralarga qarashli temir yo'l shoxobcha yo'llari orqali vagonlarning ulangan va yakka holda harakatlanish imkoniyatini;
- sh) energetik samaradorlik talablariga muvofiqlikni ta'minlashi lozim.

Harakatdagi temir yo'l tarkibi va uning tarkibiy qismlarini loyihalashga qo'yiladigan talablar

10. Harakatdagi temir yo'l tarkibi va uning tarkibiy qismlarini loyihalashtirishda loyihalovchi (ishlab chiquvchi) insonlar, jonivorlar va o'simliklar hayoti va sog'lig'iga zararli va (yoki) xavfli ta'sirlarning ekologik qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablarni ta'minlaydigan yechimni tanlashi lozim.

11. Harakatdagi temir yo'l tarkibi va uning tarkibiy qismlarining loyihalovchi (ishlab chiquvchi) tomonidan tanlangan konstruksiyalari belgilangan resursi va (yoki) xizmat muddati, belgilangan saqlash muddati davrida xavfsiz bo'lishi, shuningdek, foydalanish vaqtida ular uchrashi mumkin bo'lgan ta'sirlar va yuklamalarga bardosh berishi lozim.

12. Harakatdagi temir yo'l tarkibi va uning tarkibiy qismlarini loyihalashtirishda loyihalovchi (ishlab chiquvchi) harakatdagi temir yo'l tarkibining to'qnashuvi va (yoki) izdan chiqishi holatida xizmat ko'rsatuvchi xodimlar va (yoki) yo'lovchilarni muhofaza qilish uchun avariyaaviy kresh-tizimlarni nazarda tutishi lozim.

13. Harakatdagi temir yo'l tarkibi va uning tarkibiy qismlarini loyihalashtirishda loyihalovchi (ishlab chiquvchi) harakatdagi temir yo'l tarkibi va uning tarkibiy qismlarining xavfsiz ishlashini ta'minlovchi dasturiy vositalarni nazarda tutishi lozim.

14. Harakatdagi temir yo'l tarkibi va (yoki) uning tarkibiy qismlarining konstruksiyasiga o'zgartirishlar kiritilganda, mazkur Texnik reglamentda nazarda tutilgan, loyihalashda belgilangan xavfsizlik talablari pasaytirilishi mumkin emas.

15. Harakatdagi temir yo'l tarkibi va uning tarkibiy qismlarining konstruksiyasiga yoki tayyorlanish texnologiyasiga xavfsizlikka ta'sir etuvchi o'zgartirishlar kiritilgan hollarda, shuningdek, xizmat muddatini

uzaytirish bilan modernizatsiya qilinganda, ko'rsatib o'tilgan temir yo'l mahsulotining mazkur Texnik reglament 4-bobida belgilangan tartibda muvofiqligi majburiy tasdiqlashdan o'tkazilishi lozim.

16. Harakatdagi temir yo'l tarkibi va uning tarkibiy qismlarini O'zbekiston Respublikasi ichki bozoriga muomalaga chiqarish muvofiqlik sertifikatini mavjud bo'lganda amalga oshiriladi. Muvofiqlikni baholash (tasdiqlash) jarayonlaridan o'tgan va Texnik reglament talablariga javob beradigan harakatdagi temir yo'l tarkibi va uning tarkibiy qismlari muvofiqlik milliy belgisi bilan tamg'alanadi.

Harakatdagi temir yo'l tarkibi va uning tarkibiy qismlari yaxshi farqlanadigan identifikatsiya va ogohlantiruvchi yozuvlarga hamda tamg'aga ega bo'lishi, shuningdek, undan foydalanish bo'yicha qo'llanmada takrorlanishi va tushuntirilishi lozim.

17. Harakatdagi temir yo'l tarkibi konstruksiyaviy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqarilgan yilidan qat'i nazar, harakatdagi temir yo'l tarkibi identifikatsiyalanishini ta'minlovchi quyidagi tamg'aga ega bo'lishi lozim:

- a) muvofiqlik belgisi;
- b) ishlab chiqaruvchi-korxonasi nomi va (yoki) uning tovar belgisi;
- v) mahsulot nomi va (yoki) seriyasi yoki rusumining belgisi, raqami;
- g) ishlab chiqarilgan sanasi;
- d) tara og'irligi;
- ye) konstruksiyaviy tezlik;
- j) o'tkazilgan ta'mirlar to'g'risida belgi yoki yozuv;
- z) yuk ko'tarish qobiliyati (yuk, pochta va bagaj vagonlari uchun);
- i) yo'lovchilar uchun joylar soni (yo'lovchilar yoki tezkor-ta'mirlash xodimlarini tashish uchun mo'ljallangan harakatdagi temir yo'l tarkibi uchun).

18. Harakatdagi temir yo'l tarkibining tarkibiy qismlari konstruksiyaviy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqarilgan yilidan qat'i nazar, tarkibiy qismlar identifikatsiyalanishini ta'minlovchi quyidagi tamg'aga ega bo'lishi lozim:

- a) muvofiqlik belgisi;
- b) ishlab chiqaruvchi korxonasi nomi yoki uning tovar belgisi, temir yo'l mahsuloti nomi;
- v) ishlab chiqarish sanasi.

Agar konstruksiyaviy xususiyatlariga ko'ra tamg'ani harakatdagi temir yo'l tarkibi tarkibiy qismlariga bevosita tushirish imkoni bo'lmasa, uni faqat o'ramga tushirilishiga va harakatdagi temir yo'l tarkibi tarkibiy qismlariga ilova qilinadigan foydalanish hujjatlaridagina aks ettirilishiga yo'l qo'yiladi.

19. Harakatdagi temir yo'l tarkibiga o'rnatilgan o'lchash vositalari tasdiqlangan turda hamda metrologiya sohasidagi qonunchilikka muvofiq qiyoslash belgisi va (yoki) qiyoslash to'g'risidagi guvohtonoma ega bo'lishi lozim.

20. Harakatdagi temir yo'l tarkibining g'ildirak juftliklari konstruksiyaviy hujjatlarga muvofiq tamg'aga va tamg'alash belgilariga ega bo'lishi lozim.

21. Yuk vagonlari aravachalarining rama va balkalari konstruksiyaviy hujjatlarga muvofiq quyidagi quyma tamg'a belgilariga ega bo'lishi lozim:

- a) ishlab chiqaruvchining shartli raqami;
- b) ishlab chiqarilgan yilining oxirgi ikki raqami;
- v) ishlab chiqaruvchining raqamlash tizimi bo'yicha rama va balkalarning tartib raqami;
- g) po'lat markasining shartli belgisi.

22. Yuk vagonlari aravachalarining rama va balkalari konstruksiyaviy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqaruvchining tamg'a belgilariga, rama va balka nuqsonlari payvandlash orqali to'g'rilangan hollarda — payvandchining tamg'asiga ega bo'lishi lozim.

23. Mashinist kabinasi, yo'lovchi vagonlari va motorvagonli harakatdagi tarkibning oynalari konstruksiyaviy hujjatlarga muvofiq quyidagi tamg'aga ega bo'lishi lozim:

- a) muvofiqlik belgisi;
- b) ishlab chiqaruvchi nomi va (yoki) uning tovar belgisi;
- v) oyna turi belgisi;
- g) himoya klassi;
- d) sertifikatlash to'g'risidagi ma'lumotlar.

24. Harakatdagi temir yo'l tarkibi va uning tarkibiy qismlarini foydalanishga topshirishda foydalanish va ta'mirlash hujjatlarining komplekti mavjud bo'lishi shart.

Ishlab chiqarilgan, muvofiqligi majburiy tasdiqlanishi lozim bo'lgan harakatdagi temir yo'l tarkibi va uning tarkibiy qismlari ulardan xavfsiz foydalanishni ta'minlash yuzasidan talab va tartiblar ko'rsatilgan foydalanish bo'yicha tegishli qo'llanmalar mavjud bo'lgan hollarda muomalaga chiqariladi.

25. Tamg'a, foydalanish va ta'mirlash hujjatlari davlat tilida bo'lishi lozim.

4-§. Harakatdagi temir yo'l tarkibining boshqaruv, nazorat va xavfsizlik tizimlari, shuningdek, dasturiy vositasiga qo'yiladigan talablar

26. Harakatdagi temir yo'l tarkibi uning jihozlari joylashuvi va montaji ulardan foydalanishda, ko'rik o'tkazishda, texnik xizmat ko'rsatishda, ta'mirlashda xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning xavfsizligini ta'minlashi lozim.

Harakatdagi temir yo'l tarkibi undan foydalanishda, ko'rik o'tkazishda, texnik xizmat ko'rsatishda, ta'mirlashda xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning xavfsizligini ta'minlaydigan zinapoya, tutqich va moslamalarga ega bo'lishi lozim.

27. Harakatdagi temir yo'l tarkibining boshqaruv, nazorat va xavfsizlik tizimlari, uning foydalanish bo'yicha qo'llanmasida nazarda tutilgan ishning barcha rejimlarida va barcha tashqi ta'sirlarida ishchanlik holatini ta'minlashi lozim.

Harakatdagi temir yo'l tarkibining boshqaruv va nazorat tizimlari xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning mantiqiy xatolari ehtimolida xavfli holatlar yuzaga kelishini istisno etishi lozim.

28. Boshqaruv, nazorat va xavfsizlik tizimlari tarkibida harakatdagi temir yo'l tarkibi va uning tarkibiy qismlari texnik soz holatining xavfsizlikka tahdid solishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni keltirib chiqaruvchi buzilishlar haqida ogohlantiruvchi signal va axborot vositalari bo'lishi lozim.

29. Harakatdagi temir yo'l tarkibiga o'rnatilgan, shuningdek, material tashuvchilarda yetkazib beriladigan dasturiy vositalar:

a) texnik vositalarning nosozligi va (yoki) ishdan chiqishi sababli yuzaga kelgan qayta yuklanishlardan keyin ish qobiliyatini, shuningdek, o'zining nosozliklarida butunlikni;

b) ma'lumotni saqlash, kiritish, qayta ishlash va chiqarishda kompyuter viruslaridan, ruxsat etilmagan foydalanishdan, ishdan chiqish oqibatlaridan, xatolar va nosozliklardan, axborotning tasodifiy o'zgarishi ehtimollaridan himoyalaniшни;

v) ilova qilingan hujjatlarda bayon qilingan xossalar va tavsiflarga muvofiqlikni ta'minlashi lozim.

30. Harakatdagi temir yo'l tarkibining boshqaruv, nazorat va xavfsizlik tizimi elektr, gidravlik va (yoki) pnevmatik qismlari apparatlarining nosozliklarida, tortish uzatmasi va boshqa jihozlar ishlashi, dasturiy ta'minot to'xtab qolishi holatlarida harakatdagi temir yo'l tarkibi xavfsiz holatining buzilishiga olib keluvchi ish rejimi va tavsiflar o'zgarishlariga yo'l qo'ymasligi lozim. Boshqaruv tizimi to'xtab qolishi, bort qurilmalarining soz ishlashida, harakatdagi temir yo'l tarkibining to'xtab qolishiga va uning loyihaviy tavsiflari o'zgarishiga olib kelmasligi lozim.

5-§. Harakatdagi temir yo'l tarkibi jihozlanishiga qo'yiladigan talablar

31. Harakatdagi temir yo'l tarkibini boshqaradigan asbob va qurilmalar:

a) konstruksiyaviy hujjatlarga muvofiq yozuv va (yoki) ramzlar bilan ta'minlangan bo'lishi;

b) shunday loyihalashtirilishi va joylashtirilishi lozimki, ularning ixtiyoriy bo'lmagan yoqilishi, o'chirilishi yoki o'zgartirilishini istisno qilishi;

v) bajaradigan funksiyalari, foydalanish darajasi va izchilligini inobatga olgan holda joylashtirilishi lozim.

32. Yuk tashishda ishlatiladigan lokomotivlar, shuningdek, maxsus harakatdagi temir yo'l tarkibi quyidagi qurilmalar bilan jihozlangan bo'lishi lozim:

a) poyezd radioaloqasi;

b) harakat tezligini nazorat qilish asboblari;

v) harakat parametrlarining registratori;

g) lokomotiv avtomatik signalizatsiyasi;

d) pnevmatik tormoz magistrali zichligini nazorat qilish qurilmasi;

ye) kirish va chiqish svetoforlariga, temir yo'l kesishmalari va bekatlariga yaqinlashganda harakat tezligini nazorat qilish va nutqiy axborotni olish (uzatish) imkoniyatini ta'minlovchi avtomatik boshqaruv tizimi;

j) avtomatik yong'in signalizatsiyasi.

33. Yo'lovchi tashishda ishlatiladigan lokomotivlar quyidagi qurilmalar bilan jihozlangan bo'lishi lozim:

a) poyezd radioaloqasi;

b) kirish va chiqish svetoforlariga, temir yo'l kesishmalari va bekatlariga yaqinlashganda harakat tezligini nazorat qilish va nutqiy axborotni olish (uzatish) imkoniyatini ta'minlovchi avtomatik boshqaruv tizimi;

- v) avtomatik yong'in signalizatsiyasi;
- g) harakat parametrlarining registratori;
- d) lokomotiv avtomatik signalizatsiyasi;
- ye) elektropnevmatik tormoz.

34. Yuk tashish va yo'lovchi tashishda ishlatiladigan hamda bitta mashinist bilan xizmat ko'rsatadigan lokomotivlar mazkur Texnik reglamentning 32 va 33-bandlarida keltirilgan qurilmalarga qo'shimcha ravishda quyidagi qurilmalar bilan jihozlanishi lozim:

a) poyezd tormozlanishini avtomatik boshqarish tizimi yoki lokomotiv kompleks xavfsizlik qurilmasi;

- b) mashinist hushyorligini nazorat qilish tizimi;
- v) orqa ko'rinish ko'zgusi yoki shunga o'xshash qurilmalar;
- g) tormoz blokirovkasi;
- d) yong'in o'chirish tizimi.

35. Manyovr lokomotivlari quyidagi qurilmalar bilan jihozlanishi lozim:

a) vagonlardan masofaviy uzilish;

b) manyovr lokomotivlaridan foydalaniladigan uchastkalarda ishlatiladigan manyovr radioaloqasi bilan mos keluvchi manyovr radioaloqasi.

36. Bitta mashinist bilan xizmat ko'rsatiladigan manyovr lokomotivlari mazkur Texnik reglamentning 35-bandida keltirilgan qurilmalarga qo'shimcha ravishda quyidagi qurilmalar bilan jihozlanishi lozim:

a) ikkinchi boshqaruv pulti;

b) orqa ko'rinish ko'zgusi yoki shunga o'xshash qurilmalar;

v) mashinist lokomotivni boshqarish qobiliyatini to'satdan yo'qotgan holatda avtomatik to'xtashni ta'minlovchi qurilma.

37. Motorvagonli harakatdagi tarkib quyidagi qurilmalar bilan jihozlanishi lozim:

a) poyezd radioaloqasi;

b) kirish va chiqish svetoforlariga, temir yo'l kesishmalari va bekatlariga yaqinlashganda harakat tezligini nazorat qilish va nutqiy axborotni olish (uzatish) imkoniyatini ta'minlovchi avtomatik boshqaruv tizimi;

v) harakat parametrlarining regulatorlari;

g) lokomotiv avtomatik signalizatsiyasi;

d) elektropnevmatik tormoz;

ye) «yo'lovchi-mashinist» aloqasi;

j) eshiklar yopilishini nazorat qilish signalizatsiyasi;

z) avtomatik yong'in signalizatsiyasi.

38. Yuk va yo'lovchi tashishda ishlatiladigan lokomotivlar, motorvagonli harakatdagi tarkibning bosh vagonlari, shuningdek, o'ziyurar maxsus harakatdagi temir yo'l tarkibi, harakat xavfsizligini ta'minlashga yordam beruvchi sun'iy yo'ldosh navigatsiya uskunalari bilan jihozlangan bo'lishi lozim.

39. Lokomotivlar, motorvagonli harakatdagi tarkib va o'ziyurar maxsus harakatdagi tarkibning lokomotiv avtomatik signalizatsiyasi belgilangan harakat tezliklari nazoratini ta'minlovchi, poyezdni to'xtash joyidan o'z-o'zidan ketib qolishga to'sqinlik qiluvchi, mashinist (haydovchi) hushyorligini davriy tekshiruvchi xavfsizlik qurilmalari bilan jihozlanishi lozim.

Mashinist (haydovchi) tomonidan lokomotivni, motorvagonli harakatdagi tarkibni, o'ziyurar maxsus harakatdagi temir yo'l tarkibni boshqarish qobiliyatini yo'qotgan holatda, ko'rsatib o'tilgan qurilmalar poyezdni avtomatik to'xtashni ta'minlashi lozim.

40. Lokomotiv, motorvagonli harakatdagi tarkib va o'ziyurar maxsus harakatdagi temir yo'l tarkibi mashinistining kabinasi konstruksiyasi quyidagilarni ta'minlashi lozim:

a) «o'tirish» va «tik turish» holatidagi lokomotiv brigadasiga harakatlanish yo'li, pol ustki signallari, qo'shni yo'llar, tarkiblar va kontakt tizimini hych qanday to'sqinliksiz ko'rinishi;

b) lokomotiv brigadasi xodimlaridan birining «tik turish» holatida vagonlar tarkibiga yaqinlashganda va manyovrlarda ishtirok etayotgan xodimlarning ish zonasidan ko'rinishini;

v) yil va sutkaning xohlagan vaqtida, har qanday ob-havo sharoitlarida, harakatning barcha tezliklarida mashinist (haydovchi) kabinasidan hych qanday to'sqinliksiz ko'rinishi.

41. Lokomotiv, motorvagonli harakatdagi tarkib va o'ziyurar maxsus harakatdagi temir yo'l tarkibi mashinisti (haydovchisi) kabinasining old oynalari derazalarga ishonchli mahkamlangan bo'lishi va zichlashtirgichlarga ega bo'lishi lozim.

42. Lokomotiv, motorvagonli harakatdagi tarkib va o'ziyurar maxsus harakatdagi temir yo'l tarkibi mashinisti (haydovchisi) kabinasining rejalashtirilishi, lokomotiv brigadasi ish joyi, boshqarish asboblari va qurilmalari, axborotni ko'rsatish tizimlarining joylashishi, mashinist (haydovchi) o'rindig'ining konstruksiyasi ergonomika va tizimli texnika talablariga javob berishi lozim.

Boshqaruv pulti hamda mashinist (haydovchi) va uning yordamchisi ish joyini loyihalashtirishda, «tik turish» va «o'tirish» holatlaridan boshqarish qulayligini ta'minlovchi ergonomika talablari hisobga olinishi lozim.

Boshqaruv qurilmalari va asboblari, o'lchov asboblari, boshqaruv pultidagi nurli indikatorlarning joylashishi va konstruksiyasi, kunduzi va tungi vaqtda, nurning to'g'ridan-to'g'ri tushishi yoki aks etishidan hosil bo'luvchi shu'lalar mavjud bo'lmaganda ko'rsatib o'tilgan asboblarning ko'rsatkichlarining ko'rinishini ta'minlashi lozim.

Mashinist (haydovchi) kabinasidagi yoritish parametrlari, o'lchov asboblari shkalalarining yorqinligi yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan ko'rsatkichlar chegarasida bo'lishi lozim.

43. Xizmat va yordamchi xonalarga ega izotermik vagon, yo'lovchi vagon, lokomotiv, motorvagonli harakatdagi tarkib va maxsus harakatdagi temir yo'l tarkiblari umumiy, mahalliy va avariya yoritish tizimlari bilan jihozlanishi lozim.

Avariya yoritish tizimi asosiy ta'minlash manbasida kuchlanish bo'lmagan vaqtda, avtonom ta'minlash manbasiga (akkumulyator batareyasiga) avtomatik o'tishini ta'minlashi lozim. Bunda avariya yoritishni qo'lda yoqish imkoniyati nazarda tutilgan bo'lishi lozim.

44. Lokomotiv, motorvagonli harakatdagi tarkib va o'ziyurar maxsus harakatdagi temir yo'l tarkibi mashinisti (haydovchisi) kabinasidan yordamchi moslamalardan foydalangan holda yon derazalar orqali avariya chiqish nazarda tutilgan bo'lishi lozim.

Xizmat va yordamchi xonalarga ega izotermik vagon, yo'lovchi vagon, motorvagonli harakatdagi tarkib va maxsus harakatdagi temir yo'l tarkibi vagonining har bir tomonidan avariya chiqishlar bilan jihozlanishi hamda zarur hollarda xizmat ko'rsatuvchi xodimlar va (yoki) yo'lovchilarni avariya evakuasiya qilish vositalariga ega bo'lishi lozim.

Avariya chiqish joyini ochishga bitta odamning kuchi yetarli bo'lishi lozim.

45. Harakatdagi temir yo'l tarkibi xizmat ko'rsatuvchi xodimlar va (yoki) yo'lovchilar uchun mo'ljallangan ichki xonalarning oynalari, harakatdagi temir yo'l tarkibiga to'xtab turganida yoki harakatlanish yo'lida zarbali ta'sirlar bo'lgan holatlarda xizmat ko'rsatuvchi xodimlar va (yoki) yo'lovchilar xavfsizligini ta'minlashi lozim.

46. Harakatdagi temir yo'l tarkibining ko'zdan kechirish, sozlash va texnik xizmat ko'rsatish talab qiladigan ichki qismlari hamda zarur hollarda tashqi ishchi jihozlar qo'shimcha yoritish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim.

47. Harakatdagi temir yo'l tarkibi avtomatik tormozlar bilan jihozlangan bo'lishi, ular tarkibni tormozlash paytida sekinlashishni yoki hisoblangan tormozlash yo'li chegarasida to'xtashni ta'minlashi lozim.

Harakatdagi temir yo'l tarkibining avtomatik tormozlari foydalanishning turli sharoitlarida zarur funktsionallik va ishonchlilikka ega bo'lishi, ravon tormozlanishni ta'minlashi, shuningdek, tormoz magistrali butunligi buzilganda yoki harakatdagi temir yo'l tarkibi birliklarining ruxsatsiz uzilishida poyezdning to'xtashini ta'minlashi lozim.

48. Avtomatik tormozlar harakatdagi temir yo'l tarkibining yuklanishi, tarkib uzunligi va temir yo'l profiliga bog'liq ravishda tormozlanishning turli xil rejimlarini qo'llash imkoniyatini ta'minlashi lozim.

49. Yo'lovchi vagonlari va motorvagonli harakatdagi tarkibdagi stop-kranlar tamburlarda, yo'lovchi vagonlarining ichkarisida o'rnatilgan va plombalangan bo'lishi lozim.

Xizmat va yordamchi xonalari bo'lgan izotermik vagonlardagi stop-kranlar xizmat xonalarida o'rnatilgan va plombalangan bo'lishi lozim.

O'ziyurar harakatdagi temir yo'l tarkibida stop-kranlar zarur hollardagina o'rnatiladi.

50. Harakatdagi temir yo'l tarkibi to'xtab turish tormozlari bilan jihozlanishi lozim. Standartlarga muvofiq umumiy ishlab chiqarilayotgan vagonlarning bir qismi stop-kranli va to'xtab turish tormozli o'tish maydonchalari bilan jihozlanishi lozim.

Harakatdagi temir yo'l tarkibining to'xtab turish tormozlari hisoblangan tormozlanish bosimini va harakatdagi temir yo'l tarkibi birligini yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan ko'rsatkichlar chegarasida tutib turishni ta'minlashi lozim.

To'xtab turish qo'l tormozi shturvali, shturvalning o'z-o'zidan aylanishini istisno qiluvchi qurilma bilan jihozlangan bo'lishi lozim.

Avtomatik to'xtab turish tormozlari qo'llanilishiga yo'l qo'yiladi.

51. Uzilishi yoki sinishi temir yo'lga tushishini yoki harakatdagi temir yo'l tarkibi gabaritdan tashqariga chiqib ketishini keltirib chiqaruvchi harakatdagi temir yo'l tarkibining tarkibiy qismlari, himoya qilayotgan qurilmaning og'irligini yo'l qo'yilgan qiymatlar chegarasida ko'tara oladigan saqlovchi moslamalarga ega bo'lishi lozim.

52. Harakatdagi temir yo'l tarkibining asosiy havo rezervuarlari va akkumulyator batareyalari mashinist kabinasi, yo'lovchi tashish salonlari va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar uchun mo'ljallangan xonalarning tashqarisida o'rnatilishi lozim.

53. Xizmat yoki shoshilinch tormozlash amalga oshirilganda lokomotiv va motorvagonli harakatdagi tarkib elektrodinamik tormozining (mavjud bo'lganda) harakati pnevmatik va elektropnevmatik tormozlar ishi bilan mos bo'lishi shart. Elektrodinamik tormoz ishdan chiqqanda, uni pnevmatik tormoz bilan avtomatik ravishda almashtirish ta'minlanishi lozim.

54. Tezyurar yo'lovchi vagonlarida tormozlash samaradorligini va harakat xavfsizligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar (masalan, diskli, magnitreli tormozlarni qo'llash) nazarda tutilgan bo'lishi lozim.

55. Harakatdagi temir yo'l tarkibi va uning tarkibiy qismlari atrof muhit haroratining ruxsat etilgan qiymatlari doirasida barqaror ishlashi va harorat ruxsat etilgan qiymat doirasida qisqa muddatga oshganda ham ishchi holatini saqlab qolishi lozim.

56. Harakatdagi temir yo'l tarkibi uning birliklarini o'z-o'zidan ajralishini istisno qiladigan va favqulodda vaziyatlarda harakatdagi temir yo'l tarkibining evakuasiya qilinishini ta'minlaydigan ulash qurilmasi bilan jihozlangan bo'lishi lozim.

Harakatdagi temir yo'l tarkibining avtossepka qurilmasi tarkibida energiya yutuvchi uskunasi bo'lishi lozim.

57. Avtossepka qurilmasi bilan jihozlangan yo'lovchi vagonlari va motorvagonli harakatdagi tarkib bufer qurilmasi bilan jihozlangan bo'lishi lozim.

58. Harakatdagi temir yo'l tarkibi g'ildirak juftliklarining g'ildiraklari, o'qi va bandaji, yuk vagonlari aravachalarining yon ramalari va reszor usti balkalari konstruktorlik hujjatlarida belgilangan tekshiruvdan o'tish yoki xizmat muddatining to'liq davrlari davomida nuqsonlar (yoriqlar)ning yuzaga kelishi va rivojlanishiga barqarorlikni ta'minlaydigan statik quvvat zaxirasiga va charchoqqa qarshi zarur koeffitsiyentga ega bo'lishi lozim.

Yuk vagonlarining g'ildiraklari, o'qi va bandajlari, aravachalarining yon ramalari va reszor usti balkalarining mexanik xossalari, zarba qotishqoqligi va qoldiq taranglik holati belgilangan xizmat muddati davomida ularning mexanik xavfsizligini ta'minlashi lozim.

59. Harakatdagi temir yo'l tarkibi va uning tarkibiy qismlarini loyihalashtirish va ishlab chiqarishda foydalaniladigan materiallar va moddalar odamlar va atrof muhit uchun xavfsiz bo'lishi lozim.

60. Lokomotivlar, motorvagonli harakatdagi tarkib, o'ziyurar maxsus harakatdagi temir yo'l tarkibining mashinist (haydovchi) kabinalari, yo'lovchi vagonlari va maxsus harakatdagi temir yo'l tarkibining ichki xonalari, maxsus harakatdagi temir yo'l tarkibining xizmat ko'rsatish va maishiy xonalari, shuningdek, xizmat ko'rsatish va yordamchi xonali izotermik vagonlarning hayotni ta'minlash tizimlari (havoni kondisionerlash-isitish, ventilyasiya, sovitish, yoritish, shovqin va vibrasiyadan himoyalash, havoni tozalash, infratovush va ultratovush, elektromagnit nurlanishdan himoyalash tizimlari)ning xususiyatlari (mikroiqlim ko'rsatkichlari, shovqin, vibrasiya, ultratovush darajasi, elektromagnit nurlanish, yoritish, havo tarkibi ko'rsatkichlari) ish o'rinlari uchun ruxsat etiladigan qiymatlardan oshmasligi lozim.

Harakatdagi temir yo'l tarkibining tashqi shovqini ruxsat etiladigan qiymatlardan oshmasligi lozim.

61. Harakatdagi temir yo'l tarkibi va uning tarkibiy qismlarini ishlab chiqarish, ulardan foydalanish, ularga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash jarayonida suyuqliklar (kislotalar, ishqorlar, suyultirilgan gazlar) va yoqilg'i-moylash moddalaridan foydalanish insonlarning hayoti va sog'lig'iga, hayvonlar va o'simliklarga xavfli ta'sirlarning yuzaga kelishiga olib kelmasligi lozim.

62. Harakatdagi temir yo'l tarkibining zinapoyalari va tutqichlari ishonchli mahkamlangan bo'lishi lozim. Zinalar, maydonlar, zinapoyalar va qoplamalar yuzasi sirpanishga to'sqinlik qilishi lozim.

Vagonlar, maxsus harakatdagi temir yo'l tarkibining tomiga ko'tarilish uchun mo'ljallangan narvonlarga xavf haqida ogohlantiruvchi belgilar tushirilgan bo'lishi lozim.

Lokomotivlar va elektropoyezdlar motorli vagonlarining tomiga olib chiquvchi narvonlar yopilgan holatda bloklangan bo'lishi va maxsus qurilma yordamida ochilishi lozim.

63. Harakatdagi temir yo'l tarkibining konstruksiyasida ularni domkrat bilan ko'tarish uchun maxsus joylar inobatga olingan bo'lishi lozim. Domkrat boshchasi bilan tutashishga mo'ljallangan sirt ularning sirpanishiga to'sqinlik qilishi lozim.

G'ildirak juftliklari relsdan chiqib ketgan hollarda harakatdagi temir yo'l tarkibining har bir birligini kranlar va domkratlar bilan ko'tarish, shuningdek, g'ildirak juftliklari tishlashib qolganida uni transportirovka qilish imkoniyati inobatga olingan bo'lishi lozim.

64. Harakatdagi temir yo'l tarkibi va uning tarkibiy qismlari konstruksiyasi va jihozlarning tashqariga chiqib turuvchi detallari xizmat ko'rsatuvchi xodimlar va (yoki) yo'lovchilarni jarohatlaydigan o'tkir yonlar, qirralar va burchaklarga ega bo'lmasligi lozim.

65. Yo'lovchi vagonlari, motorvagonli harakatdagi tarkib vagonlarining salonlari, lokomotivlar, motorvagonli harakatdagi tarkib, maxsus harakatdagi temir yo'l tarkibining mashinist (haydovchi) kabinalari, izotermik vagonlarning xizmat ko'rsatish va yordamchi xonalari ichki yuzalarini pardoqlash ishlari uchun foydalaniladigan materiallar va moddalarning yong'in kelib chiqishi va rivojlanishi hamda yong'in xavfli omillarining insonlarga ta'siri ko'rsatkichlari ruxsat etiladigan xavf darajasi qiymatlaridan oshmasligi lozim.

Yo'lovchi vagonlari vagon kuzatuvchilarining kupelari mavjud bo'lsa, kuzatuvchi kupesi va yo'lovchilar saloni orasi, kupeli vagonlarda esa kupelarning orasi ham yong'inni ushlab qoluvchi to'siqlar bilan jihozlangan bo'lishi lozim. Kupesiz tipdagi vagonlarning va kupe tipidagi vagonlar katta (asosiy) yo'lagining shift usti bo'shlig'i yong'inni ushlab qoluvchi framuglarni o'rnatish yo'li bilan kamida uchta zonaga ajratilgan bo'lishi lozim.

Vagon rusumidagi kuzovli lokomotivlar, motorvagonli harakatdagi tarkibning mashinist kabinasi vagon tipidagi kuzovli lokomotivlar yoki motorvagonli harakatdagi tarkibning qolgan qismidan yong'inni ushlab qoluvchi to'siqlar bilan to'silgan bo'lishi lozim.

66. Yo'lovchi vagonlari va motorvagonli harakatdagi tarkibda xizmat ko'rsatuvchi xodimlar va yo'lovchilarning o'tish yo'laklari bo'ylab vagondan vagonga xavfsiz o'tishi ta'minlanishi lozim. O'tish maydonchalarining konstruksiyasi yopiq turda bo'lishi lozim, ya'ni xizmat ko'rsatuvchi xodimlar va yo'lovchilarning harakatdagi temir yo'l tarkibining tashqi elementlari, temir yo'l transporti infratuzilmasi elementlari (kontakt tarmog'i, izning ustki tuzilishi va boshqalar) bilan tasodifiy aloqa qilish ehtimolini istisno qilishi, shuningdek, xizmat ko'rsatuvchi xodimlar va yo'lovchilar o'tish maydonida bo'lgan vaqtda ularga nisbatan atrof muhit omillarning salbiy ta'sirini minimallashtirishi lozim.

67. Yo'lovchi vagonlari, xizmat ko'rsatish va yordamchi xonali izotermik vagonlar yuqoridagi uxlash joylarining konstruksiyasi va mahkamlanishi, xizmat ko'rsatuvchi xodimlar va (yoki) yo'lovchilarning shikastlanishiga olib keladigan, qulash yoki egilish ehtimolini istisno etishi lozim.

Yuqoridagi uxlash joylari xizmat ko'rsatuvchi xodimlar va yo'lovchilar yiqilishining oldini oluvchi to'sish kamarlari yoki bortlari bilan jihozlangan bo'lishi lozim.

68. Yo'lovchi vagonlari va motorvagonli harakatdagi tarkibning o'rindiqlari va divanlari polga mustahkam qilib mahkamlangan bo'lishi va ularni, shu jumladan, shoshilinch tormozlash vaqtida ag'darilish ehtimolini istisno etadigan konstruksiyaga ega bo'lishi lozim.

Yo'lovchilar va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning shaxsiy yuklarini joylashtirish va mahkamlash joylari shunday hisob-kitob bilan amalga oshirilgan bo'lishi kerakki, bunda shoshilinch tormozlash va (yoki) avariya evakuasiya vaqtida yo'lovchilar va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar shikastlanmasligi lozim.

Yo'lovchi vagonlar, motorvagonli harakatdagi tarkib vagonlari va xizmat ko'rsatish va yordamchi xonalarga ega izotermik vagonlarning joylashuv rejasi, yo'lovchilar va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar uchun joylarning joylashuvi ergonomika va sistemotexnika talablariga javob berishi lozim.

69. Ko'p seksiyali lokomotivlar lokomotiv brigadasining bir seksiyadan ikkinchisiga xavfsiz o'tishini ta'minlash uchun yopiq tipdagi o'tish maydonchalari bilan jihozlangan bo'lishi lozim.

70. Harakatdagi temir yo'l tarkibining dizel, elektr mashinalar, ventilyatorlar, kompressorlar va boshqa asbob-uskunalarining aylanadigan qismlari xizmat ko'rsatuvchi xodimlar va yo'lovchilarning harakatdagi temir yo'l tarkibining harakatlanadigan qismlari bilan tasodifiy aloqasini istisno qiluvchi maxsus qurilmalar bilan to'silgan bo'lishi lozim.

71. Kapot tipidagi kuzovga ega bo'lgan lokomotivlar yon va chekka maydonlarga ega bo'lishi lozim. Yon va chekka maydonlarning tashqi tomonida, oraliq to'siqlarga ega bo'lgan tutqich — g'ovlar

o'rnatilishi lozim. Maydonchalar polining tashqi perimetri bo'ylab cheklovchi plankalar o'rnatilgan bo'lishi lozim.

72. Lokomotivlar, motorvagonli harakatdagi tarkib, yo'lovchi va izotermik vagonlarning elektr jihozlari ortiqcha yuklanishda, qisqa tutashuvlarda, yerga tutashuvlarda, elektr jihozlarining ortiqcha kuchlanishida, shuningdek, rekuperativ tormozlash, joyidan jilmasdan aylanish va g'ildirak juftliklarining sirg'alishlari paytidagi kontakt tarmog'idagi kuchlanishni yechish paytida ishlab ketuvchi himoya va signalizasiyaga ega bo'lishi lozim. Himoyaning ishga tushishi elektr jihozlarining shikastlanishini istisno etishi va xavfli oqibatlarga: tutashish yoki yong'inga olib keluvchi ruxsat etilmaydigan qizib ketishga va (yoki) elektr jihozlari izolyasiyasining teshilishiga olib keluvchi ortiqcha kuchlanishlarga olib kelmasligi lozim.

73. Harakatdagi temir yo'l tarkibning kuchlanish ostida bo'lgan elektr jihozlarining himoyalanmagan (izolyasiyalanmagan) qismlari ularga xizmat ko'rsatuvchi xodimlar va (yoki) yo'lovchilar tasodifiy kirishining oldini oluvchi himoyaga ega bo'lishi lozim.

Elektr jihozlarining metall qobiqlari, shuningdek, nosozligida ruxsat etilgan qiymatlardan kattaroq kuchlanish ostida bo'lib qolishi mumkin bo'lgan barcha to'siqlar (shu jumladan, quvurlar), tok o'tkazuvchi qismlarni mahkamlash uchun konstruksiyalar harakatdagi temir yo'l tarkibining korpusiga ulanishi (yerga ulash maqsadida) lozim.

74. Lokomotivlar, motorvagonli harakatdagi tarkib, yo'lovchi vagonlari, maxsus harakatdagi temir yo'l tarkibi va avtonom energetika qurilmali izotermik vagonlar elektr himoya vositalari to'plamini saqlash uchun maxsus joylar, shuningdek, mazkur bandda keltirilgan harakatdagi temir yo'l tarkibiga texnik xizmat ko'rsatish va xavfsiz foydalanish uchun zarur bo'lgan boshqa maxsus uskunarlar bilan jihozlangan bo'lishi lozim.

75. Harakatdagi temir yo'l tarkibi va uning tarkibiy qismlari tomonidan kelib chiqayotgan elektromagnit shovqinlar darajasi ko'rsatkichlari temir yo'l transportining infratuzilma obyektlari va unda foydalanilayotgan harakatdagi temir yo'l tarkibining ish samaradorligiga ushbu shovqinlar ta'sir qilmaydigan doiradagi qiymat ko'rsatkichlaridan oshmasligi lozim.

76. Akkumulyator qutisi portlash xavfidan holi bo'lishi lozim.

77. Lokomotivlar, motorvagonli harakatdagi tarkib, maxsus harakatdagi temir yo'l tarkibi, yo'lovchi va izotermik vagonlar yong'in signalizasiyasi tizimlari, yong'in o'chirish qurilmalari, yong'in o'chirish uskunalarini joylashtirish uchun maxsus joylar, yong'inga qarshi uskunalar bilan jihozlangan bo'lishi lozim.

Yong'in signalizasiyasi tizimlari yong'in joyini ko'rsatuvchi akustik va (yoki) optik ma'lumotlarni uzatish, qabul qilish — nazorat moslamasi bilan xabar beruvchilar aloqa liniyalaridagi nosozliklar (qisqa tutashuv, uzilish)ni avtomatik ravishda aniqlash, shuningdek, ularning sozligini muntazam tekshirish imkoniyati ta'minlangan bo'lishi lozim.

78. Avtonom energetika qurilmali lokomotivlar va izotermik vagonlar, dizel-poyezdlar, dizel-elektropoyezdlar, relsli avtobuslar, o'ziyurar maxsus harakatdagi temir yo'l tarkibi o't o'chirgichlar bilan jihozlangan bo'lishi lozim.

79. Vagon turidagi kuzovli lokomotivlar yordamchi mashinistni mashina (dizel) xonasidan mashinist kabinasiga chaqirish uchun yorug'lik va ovozli signalga ega bo'lishi lozim.

80. Avtonom energetika qurilmali lokomotivlar, dizel-poyezdlar, relsli avtobuslar, dizel-elektropoyezdlar, avtonom energetika qurilmali izotermik vagonlar va o'ziyurar maxsus harakatdagi temir yo'l tarkibining ventilyasiya tizimi mashinist kabinasiga, xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning xonalariga, shuningdek, yo'lovchi salonlariga chiqindi gazlar va chang kirishi ehtimolini istisno etishi lozim.

Avtonom energetika qurilmali lokomotivlar, dizel-poyezdlar, relsli avtobuslar, dizel-elektropoyezdlar, avtonom energetika qurilmali izotermik vagonlar va o'ziyurar maxsus harakatdagi temir yo'l tarkibining mashina xonasidagi havo muhiti holatining xususiyatlari ruxsat etilgan qiymatlardan oshmasligi lozim.

81. Vagon tipidagi kuzovli teplovozlar va avtonom energetika qurilmali izotermik vagonlar dizellarining sovitish tizimi konstruksiyasi xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning teplovoz yoki izotermik vagonning tomida turmasdan, sovutish tizimini yonilg'i bilan to'ldirish imkoniyatini ta'minlashi lozim.

82. Yo'lovchi vagonlar quyidagi qurilmalar bilan jihozlangan bo'lishi lozim:

a) havoni kondisionerlash (isitish, sovitish, ventilyasiya qilish) tizimi. Bunda chekish joylari havoni resirkulyasiyasiz xonadan tashqariga chiqarib yuboradigan alohida ventilyasiya tizimi bilan jihozlangan bo'lishi lozim;

b) ichimlik va xo'jalik suv ta'minoti tizimi;

- v) ekologik toza hojatxona majmualari;
- g) poyezd ichki telefon aloqasi;
- d) buksalar qizib ketishining nazorat qilish tizimi;
- ye) poyezd radio eshittirishi;
- j) avtonom isitish tizimlaridan foydalanganda, tutun chiqarish quvurlarining uchqun o'chirgichlari.

83. Tezyurar yo'lovchi vagonlari ushbu Texnik reglamentning 82-bandida ko'rsatilgan qurilmalarga qo'shimcha ravishda markazlashtirilgan elektr ta'minoti bilan jihozlangan bo'lishi lozim.

84. Tezyurar motorvagonli harakatdagi tarkib quyidagi qurilmalar bilan jihozlangan bo'lishi lozim:

- a) havoni kondisionerlash tizimi (isitish, sovitish, ventilyasiya);
- b) poyezd ichki telefon aloqasi;
- v) buksalar qizib ketishining nazorat tizimi;
- g) ichimlik va xo'jalik suv ta'minoti tizimi;
- d) ekologik toza hojatxona majmualari.

85. Motorvagonli harakatdagi tarkibning bosh vagonlari ekologik toza hojatxona majmualari bilan jihozlangan bo'lishi lozim.

86. Xizmat ko'rsatish va yordamchi xonalarga ega bo'lgan izotermik vagonlar quyidagi qurilmalar bilan jihozlangan bo'lishi lozim:

- a) havoni kondisionerlash tizimi (ventilyasiya, isitish, sovitish);
- b) ichimlik va xo'jalik suv ta'minoti tizimi;
- v) ekologik toza hojatxona majmualari;
- g) buksalar qizib ketishining nazorat tizimi.

87. Oziq-ovqat xomashyosi va oziqa mahsulotlarini tashish uchun mo'ljallangan vagonlar har bir oziq-ovqat xomashyosi va oziqa mahsulotlari uchun ruxsat etiladigan qiymatlardagi harorat, namlik, havo almashinuvi ko'rsatkichlarini ta'minlashlari lozim.

88. Vagon kuzatuvchilarisiz xizmat ko'rsatiladigan yo'lovchi vagonlari va motorvagonli harakatdagi tarkibning vagonlari yo'lovchilarni lokomotiv yoki poyezd brigadasi bilan aloqa o'rnatishlari uchun bevosita yo'lovchi salonida joylashgan qurilmalar bilan jihozlangan bo'lishi lozim.

89. Yo'lovchi vagonlari va motorvagonli harakatdagi tarkib vagonlarining kirish eshiklari xizmat ko'rsatuvchi xodimlar va (yoki) yo'lovchilar xavfsizligini ta'minlaydigan ochilish (yopilish) tizimlari (qurilmasi) va nazorat tizimi bilan jihozlangan bo'lishi lozim.

Yo'lovchi vagonlarining kirish eshiklari harakatdagi tarkibning harakati paytida yo'lovchilar yoki begona shaxslar tomonidan ochilishini istisno etuvchi qulflash qurilmalari bilan jihozlangan bo'lishi lozim.

90. Yo'lovchi vagonlari va motorvagonli harakatdagi tarkib vagonlarining kirish eshiklarini avariyaaviy ochish ularni shtat sxemasiga muvofiq qayd qilingan ochiq holatda amalga oshirilishi lozim. Tirab ochiladigan tipdagi kirish eshiklarining avariyaaviy ochilishi poyezdning harakatlanish tezligi ruxsat etilgan qiymatlar doirasida bo'lganda qo'l rejimida amalga oshirilishi lozim.

91. Motorvagonli harakatdagi tarkibning vagonlari nogironligi bo'lgan va yosh bolali yo'lovchilar uchun mo'ljallangan joylar bilan jihozlanishi lozim.

92. Imkoniyati cheklangan fuqarolar uchun mo'ljallangan yo'lovchi vagonlari va motorvagonli harakatdagi tarkibning vagonlari quyidagi qurilmalar bilan jihozlanishi lozim:

- a) nogironlar aravachasini tez ko'tarish, tushirish va ishonchli mahkamlash uchun qurilmalar;
- b) kengaytirilgan maydonga ega bo'lgan maxsus sanuzellar;
- v) eniga kengaytirilgan o'tish joylari.

93. Harakatdagi temir yo'l tarkibi vizual va ovoz signal qurilmalari bilan jihozlangan bo'lishi lozim.

94. Vagon turidagi kuzovli lokomotivlar, motorvagonli harakatdagi tarkib va o'ziyurar maxsus harakatdagi temir yo'l tarkibi bosh vagonlarining old qismlari, shuningdek, kapot tipidagi kuzovli lokomotivlarning chekka qismlari proyektor hamda o'ng va chap tomonlaridan ikkita bufer signal chiroqlari bilan jihozlanishi lozim.

Lokomotivning har bir seksiyasining orqa chekka devoriga ham mustaqil birlik sifatida ishlatilishi mumkin bo'lgan signal chiroqlari o'rnatilishi lozim.

Proyektor lokomotiv, motorvagonli harakatdagi tarkib va o'ziyurar maxsus harakatdagi temir yo'l tarkibi bosh vagoni simmetriyalarining ko'ndalang o'qi bo'ylab o'rnatilishi lozim. Projektorning bo'ylama nuri temir yo'lning gorizont tekisligiga parallel ravishda yo'naltirilishi lozim. Projektorni yoqish sxemasi yorug'likning nominal bo'ylama kuchini ta'minlaydigan yorqin chiroqni va xira chiroqni yoqish imkoniyatini nazarda tutishi lozim.

Mashinist kabinasidan projektorning chirog'ini almashtirish va yorug'lik nurining yo'nalishini sozlash imkoniyati ta'minlangan bo'lishi lozim.

Yo'lovchi tashish vagonlari vagonlarning chekka devorlarining har ikkala tomoniga o'rnatilgan uchta signal chiroqlari bilan jihozlangan bo'lishi lozim.

95. Yuk vagonlari to'siq belgilarini o'rnatish uchun kronshteynlar bilan jihozlangan bo'lishi lozim.

96. Lokomotivlar, motorvagon harakat tarkibi va o'ziyurar maxsus harakatdagi temir yo'l tarkibi ovozli signal moslamalari — baland ovozli (tifonlar) va past ovozli (hushtak) bilan jihozlangan bo'lishi lozim. Tifon va hushtakni yoqish moslamasi mashinist va yordamchi mashinistga optimal yaqin masofada joylashgan bo'lishi lozim. Lokomotivlar va motorvagonli harakatdagi tarkibning ovozli signallarini nazorat qilish tizimi bir-birini takrorlashga ega bo'lishi — mexanik ta'sir yo'li bilan tifonning havo klapanini bevosita to'g'ridan-to'g'ri boshqarish uchun qurilmalarni o'z ichiga olishi lozim.

97. Vagon turidagi teplovozlar, dizel-poyezdlar, avtomotrisalar, relsli avtobuslar, dizel-elektropoyezdlar, avtonom energetika qurilmali izotermik vagonlar, o'ziyurar maxsus harakatdagi temir yo'l tarkibining mashina (dizel) xonasi mashinist kabinasidan yoki xizmat ko'rsatuvchi xodimlar xonasidan tambur bilan ajratilishi lozim. Tamburdan mashinist kabinasi yoki xizmat ko'rsatuvchi xodimlar xonasiga erkin o'tish ta'minlangan bo'lishi lozim.

98. Yopiq yuk, izotermik, pochta va bagaj vagonlarining yon eshiklari ular to'liq ochilganida eshikning joyi o'zgarishini cheklash uchun qurilmalar bilan jihozlangan bo'lishi lozim. Eshiklar, qopqoqlar va ularning qulflari bir kishining kuchi bilan ochilishi lozim. Yon eshiklari bo'lgan yopiq yuk vagonlari yotish joyi, deraza ramalari, eshik qulflash moslamalari, qurol qo'yish joyi va isitgich to'plamlarini o'rnatish uchun yechilmaydigan uskunalar bilan jihozlanishi lozim.

Tomida sochiluvchan yuklarni ortish uchun lyuklarga ega bo'lgan yopiq yuk vagonlarining tomi taxta supalar va ushbu taxta supalarga chiqish uchun narvonlar bilan jihozlangan bo'lishi lozim.

99. Sisternali vagonlar qozonning tashqarisidagi har ikki tomonidan bo'rtma zinali va tutqichli zinapoyalar bilan jihozlangan bo'lishi lozim. Maqsadidan kelib chiqqan holda sisternaning qozoni va ramasi tegishli konstruksiyadagi yerga ulash tizimlari bilan jihozlangan bo'lishi lozim.

Sisternali vagonlarning qozonlari tepa yoki pastki to'kish qurilmasi, quyish-to'kish armaturasi, himoyalovchi kiritish-chiqarish klapanlari, boshqa zarur armatura, shuningdek, ichki zinapoya bilan, suyultirilgan gaz uchun mo'ljallangan qozonlar esa — himoyalovchi membranalar bilan ham jihozlangan bo'lishi va qozonlar germetikligini ta'minlashi lozim.

Sisternali vagonlarning maxsus turdagi qozonlari qulflash va qulfli-boshqarish armaturalari bilan jihozlangan, shuningdek, nazorat asboblarini o'rnatish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim.

Sisternali vagonlarning qozonlari vagon izdan chiqqanida quyish-to'kish armaturasining sinishi hamda tashilayotgan suyuqlik va gazlarning qozondan oqib chiqishining oldini olish uchun xavfsizlik qurilmalari bilan jihozlanishi lozim.

100. Harakatdagi temir yo'l tarkibi va uning tarkibiy qismlari, ularni ishlab chiqarishda foydalaniladigan materiallar va moddalar belgilangan xizmat muddati tugagandan so'ng ularni xavfsiz qayta ishlash yoki utilizasiya qilish imkoniyati uchun mo'ljallangan bo'lishi lozim.

Temir yo'l kesishmalaridan foydalanayotgan temir yo'l transportining barcha tashkilotlari, yo'l xo'jaligi va yo'l harakati ishtirokchilari temir yo'l kesishmalarida harakat xavfsizligini ta'minlashning asosiy shartlaridan biriga rioya qilishlari shart.

Temir yo'l transporti temir yo'l kesishmasida boshqa barcha transport turlari oldida harakatlanish ustunligiga ega.

Temir yo'l uchustkalarida poyezdlar va inson to'qnashuvi hamda temir yo'l izlari va avtomobil kesishmalarida halokatli vaziyatlarni oldini olish maqsadida yuqorida keltirib o'tilgan temir yo'l kesishmalarida o'rnatilgan tartib –qoidalar, texnik va texnologik talablarga to'la rioya qilish lozim.

Ijrochi: "O'ztemiryo'lnazorat" inspeksiyasi Buxoro filiali
lokomotiv xo'jaligi bo'yicha bosh inspektor A.Kosimov